



## THE CATEGORY OF VOICE IN THE WORKS OF IRANIAN AND AFGHAN LINGUISTS

*Kholida Zikrillaevna Alimova*

*professor, Doctor of Sciences*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** conjugated forms of the verb, active voice, passive voice, passive, causative verb, double-voice verbs, causative, reflexive-middle voice.

**Received:** 15.05.24

**Accepted:** 17.05.24

**Published:** 19.05.24

**Abstract:** In Persian and Dari, the voice category of the verb, encompassing the majority of other categories, with the exception of the imperative mood and certain verb tenses. Voice denotes a range of relationships between the subject and the object of action, which are expressed through the verb or other, particularly lexical means. In Modern Persian and Dari, there are two forms of voice: the active and the passive. The approach of Iranian and Afghan authors to the category of the voice is ambiguous, primarily because the voice as the main grammatical category of the verb is absent in most grammatical descriptions and is not designated by a special term. The article highlights the peculiarities of the active and the passive voice, their use, and the problem of two-voice verbs. It is shown that other collateral meanings are expressed by lexical means. The article analyses the factors that contribute to the selection of verb collocations in these languages.

### ERON VA AFG‘ON TILSHUNOSLARNING ASARLARIDA NISBAT KATEGORIYASI TALQINI

*Xolida Zikrillayevna Alimova*

*professor, filologiya fanlari doktori*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** fe‘lning tuslanishli shakli, aniq nisbat, majhul nisbat, passiv forma,

**Annotatsiya:** Fors va dariy tillarida fe‘l nisbati asosiy kategoriya hisoblanib, buyruq

orttirma nisbat, ikki nisbatli fe'llar, kauzativ fe'l, o'zlik nisbati.

mayli va ayrim fe'l zamonlaridan tashqari barcha kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Fe'ning nisbat kategoriyasi harakat subyekti bilan uning obyektiga orasidagi munosabatni ifodalaydi. Bu munosabat maxsus fe'l shakllari, shuningdek, leksik vositalar orqali ifodalanadi.

Hozirgi fors va dariy tillarida fe'ning aniq va majhul nisbat turlari ajratiladi. Eron va afg'on olimlarining asarlarida nisbat aksariyat hollarda fe'ning asosiy grammatik kategoriyasi sifatida ko'rsatilmaydi va maxsus termin orqali berilmaydi.

Maqolada fors va dariy tillarida aniq va majhul nisbatlarga xos xususiyatlar, ularning qo'llanilishi, ikki nisbatli fe'llar masalasi o'rganilgan. Boshqa nisbat ma'nolarining leksik vositalar orqali ifodalanishi ko'rsatilgan. Mazkur tillarda fe'l nisbati turlarining ajratilishi omillari tahlil qilingan.

## КАТЕГОРИЯ ЗАЛОГА В ТРУДАХ ИРАНСКИХ И АФГАНСКИХ ЛИНГВИСТОВ

*Холида Зикриллаевна Алимова*

*профессор, доктор филологических наук*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** спрягаемые формы глагола, действительный залог, страдательный залог, пассив, понудительный глагол, двузаложные глаголы, каузатив, возвратно-средний залог.

**Аннотация:** В персидском и дари языках залог глагола является основной категорией, ибо включает в себя почти все другие категории, за исключением повелительного наклонения и некоторых глагольных времен. Залог обозначает различные отношения между субъектом и объектом действия, находящие свое выражение в форме глагола или в иных, в частности, лексических средствах.

В современном персидском и дари языках имеется два залога: действительный и страдательный. Подход иранских и афганских авторов к категории залога неоднозначен, прежде всего потому, что залог как основная грамматическая категория глагола в большинстве грамматических описаний отсутствует и не обозначен специальным термином.

В статье освещаются особенности действительного и страдательного залогов, их употребления, проблема двузаложных глаголов. Показано, что другие залоговые значения выражаются лексическими

средствами. Анализируются факторы выделения форм залогов глагола в данных языках.

### KIRISH

Fors va dariy tillarida fe'l sistemasi nisbat, mayl va zamon kategoriyalari bilan o'zaro bog'langan.

Fe'l nisbati asosiy kategoriya hisoblanib, buyruq mayli va ayrim fe'l zamonlaridan tashqari hamma kategoriyalarni o'z ichiga oladi.

Fe'ning nisbat kategoriyasi harakat subyekti bilan uning obyekti orasidagi munosabatni ifodalaydi. Bu munosabat maxsus fe'l shakllari, shuningdek, leksik vositalar orqali ifodalanadi. Nisbat kategoriyasi fe'l ma'nosining o'timli va o'timsizligi bilan uzviy bog'liq, chunki faqat o'timli fe'llar harakatning obyektga o'tganligini bildiradi.

Hozirgi fors va dariy tillarida fe'ning ikkita: aniq (aktiv) va majhul (passiv) nisbatlari mavjud.

### ASOSIY QISM

Eron va afg'on olimlarining asarlarida nisbat fe'ning asosiy grammatik kategoriyasi sifatida ko'rsatilmasa-da, aniq (افعال معلوم *af'al-e ma'lum*) va majhul fe'llar (افعال مجهول *af'al-e majhul*) (P.N. Xonlariy [5], J. Mashkur [7], A. Mavlaviy [8], M.N. Neghat Saidiy [6] va boshqalar) ajratiladi. Faqat A. Humoyun Farrux fe'l nisbatini *طريقة tariye* so'zi bilan atab, shu termin ostida mayl kategoriyasini ham tushunadi [9].

**Natijalar va muhokama.** Aniq nisbat harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi. Bu nisbat orqali harakat ta'sirining o'timli fe'llarda obyektga o'tishi: *کتاب را خواند ketābrā xānd* 'kitobni o'qidi'; o'timsiz fe'llarda subyektning o'ziga xoslanishi ko'rsatiladi: *خواب کرد xāb kard* 'uxladi'.

خانم تمام سرش را قیچی کرده بود (مهدی اخوت)

*Xānom tamām-e sarašrā qeychi karde bud*

'Xonim uning sochini butunlay olib tashlagan edi';

یک لقمه نان به او می داد (مهدی اخوت)

*Yek loqme nān be u midād*

'Unga bir burda non berardi'.

Majhul nisbat yordamida o'timli fe'llarda haqiqiy obyekt vazifasidagi so'z grammatik jihatdan ega vazifasini o'z zimmasiga olgani ko'rsatiladi, bunda subyekt ma'nosi ifodalanmay, yashirin holatda bo'ladi. Fe'ning majhul nisbati *o'tgan zamon sifatdoshi* va ko'makchi fe'l شدن

*šodan* ning birikuvidan yasaladi (ساختن *sāxtan* ‘qurmoq’ – ساخته شدن *sāxte šodan* ‘qurilmoq’, شنیدن *šenidan* ‘eshitmoq’ – شنیده شدن *šenide šodan* ‘eshitilmoq’):

در همین آن صدای تیری شنیده شد (بزرگ علوی)

*Dar hamin ān sedā-ye tir-i šenide šod*

‘Shu zahoti o‘q ovozi eshitildi’;

در ته چشم های او یک روح انسانی دیده می شد (صادق هدایت)

*Dar tah-e češmhā-ye u yek ruh-e ensāni dide mišod*

‘Uning ko‘zlari tubida bir insoniy ruh ko‘rinardi’.

Majhul nisbat (passiv forma) yangi fors tili davrining boshlarida yetakchi fe‘lning o‘tgan zamon sifatdoshi va آمدن *āmadan* ‘kelmoq’, گشتن *gaštan* // گردیدن *gardidan* ‘aylanmoq’, شدن *šodan* ‘ketmoq’, ‘yurmoq’ (XI-XII asrlarning oxiriga kelib ‘bo‘lmoq’, ‘aylanmoq’), افتادن *oftādan* ‘yiqilmoq’ [7, b.81] harakat fe‘llaridan birining birikuvidan yasalgan. Masalan, کشته گردید *košta gardid* // گشته شد *košta šod* ‘o‘ldirildi’, فرموده آمد *farmuda āmad* ‘buyurildi’, گفته شد *gofta šod* ‘aytildi’ va h.k. [3, b. 167-168].

M.N. Neghat Saidiy tomonidan ham klassik adabiyotda آید *āyad*, آمد *āmad*, گردد *gardad*, گشت *gašt*, گردید *gardid*, افتاد *aftad*, افتاد *aftād* fe‘l shakllari majhul nisbatdagi fe‘llar tarkibida ko‘makchi fe‘l vazifasida qo‘llanilgani qayd qilingan (گفته آید *gofta āyad*, پرداخته آمد *pardāxta āmad*, مذکور افتاد *gošāda gardid*, مسخر گشت *mosaxxar gašt*, کشته گردد *košta gardad*, mazkur *aftād* kabi) va misollar bilan dalillangan. Shuningdek, hozirgi dariy tilida ulardan ba‘zilari yozma adabiyotda ishlatilishi ko‘rsatilgan:

البته برای اثبات آنچه در بالا گفته آمد، دلایل زیاد موجود است

*Albatta barāye esbāt ānče dar bālā gofta āmad, dalāyel-e ziyād mawjud ast* ‘Albatta, yuqorida aytilganlarga isbot uchun ko‘p dalillar mavjud’ [6, b.43].

Yuqorida keltirilganidek, hozirgi fors va dariy tillarida majhul nisbatning yasalishi klassik tilga nisbatan to‘liq bir me‘yorga keltirilgan.

Shuni aytish kerakki, majhul nisbat faqat nazariy jihatdan fe‘l shakllari paradigmasiga (mayl va zamon) ega, amalda bunday emas. Birinchidan, buyruq maylining majhul nisbati yo‘q. Ikkinchidan, ijro va shart-istak mayllarining majhul nisbati mavjud bo‘lsa-da, ko‘pgina fe‘llar majhul nisbatda faqat III shaxs birlikda ishlatiladi: نوشته شده است *gofte šod* ‘aytildi’, خوانده می شود *xānde mišavad* ‘o‘qiladi’; bu, o‘z navbatida, fe‘l semantikasi bilan bog‘liq. Uchinchidan, o‘timli ma’noga ega qo‘shma fe‘llarning majhul nisbati deyarli ishlatilmaydi. Chunki ularning ko‘pchiligi o‘timsiz ma’noga ega qo‘shma fe‘llar bilan

o‘zaro korrelyativ munosabatda bo‘ladi. Masalan: منتشر کردن *montašer kardan* ‘nashr qilmoq’ – منتشر شدن *montašer šodan* ‘nashr qilinmoq’, امضا کردن *emzā kardan* ‘imzolamoq’, ‘imzo chekmoq’ – امضا شدن *emzā šodan* ‘imzolanmoq’, انجام دادن *anjām dādan* ‘tugatmoq’ – انجام یافتن *anjām yāftan* ‘tugamoq’, ‘tugallanmoq’, ya’ni bu fe’llarning majhul nisbati grammatik usul bilan emas, leksik yo‘l bilan yasaladi. Ayrim hollarda qo‘shma fe’llarning majhul nisbati ham grammatik, ham leksik usul bilan yasalishi mumkin. Masalan: ترتیب دادن *tartib dādan* ‘tartibga keltirmoq’ – ترتیب یافتن *tartib yāftan* va ترتیب داده شدن *tartib dāde šodan* ‘tartibga tushmoq’. Albatta, qo‘shma fe’llarning majhul nisbatini yasashdagi mazkur usullarda ma’lum semantik va stilistik farq bo‘ladi [4, b.151]. To‘rtinchidan, ayrim fe’llar, masalan: داشتن *dāštan* ‘ega bo‘lmoq’, بودن *budan* ‘bo‘lmoq’, کردن *kardan* ‘qilmoq’ kabilardan hozirgi fors va dariy tillarida majhul nisbat yasalmaydi.

Shuningdek, gapda logik subyekt, ya’ni harakat bajaruvchisi ishtirok etganda, majhul nisbatning ishlatilishi faol emas. Masalan: پدرم این نامه را نوشته است *Padaram in nāmerā navešht* ‘Otam bu xatni yozgan’, kam hollarda پدرم نوشته شده است *in nāme bayalam-e padaram navešte šoda ast* ‘Bu xat otam tomonidan yozildi’ tarzida ishlatiladi.

Fors va dariy tillarida ba’zi fe’llar (son jihatidan ko‘p emas) o‘zlarining leksik ma’nolariga ko‘ra ham o‘timli, ham o‘timsiz bo‘ladilar. Bunday fe’llar ikki nisbatli fe’llar deyiladi: شکستن *šekastan* ‘sinmoq’; ‘sindirmoq’, سوختن *suxtan (sôxtan)* ‘yonmoq’; ‘yondirmoq’, ریختن *rixtan (rêxtan)* ‘to‘kilmolq’; ‘to‘kmoq’, نمودن *namudan* ‘ko‘rsatmoq’; ‘ko‘rinmoq’, خریدن *xāridan* ‘qichimoq’; ‘qichishmoq’ va sh.k. (masalan, خانه سوخت *Xāne suxt (Xāna sôxt)* ‘Uy yondi’, خانه را سوخت *Xāne-rā suxt (Xāna-rā sôxt)* ‘Uyni yondirdi’). Bunday fe’llarning o‘timli yoki o‘timsiz ma’nosi nutqiy matnda anglashiladi. Masalan:

ماه دیگر در همان دشتی که خون ها ریخته بود ... ارواح کشتگان ... سرشک ندامت می ریختند

(محمد حجازی)

*Māh-e digar, dar hamān dašti ke xunhā rixte bud... arvāh-e koštegān... serešk-e nadāmat mirixtand*

‘Bir oy o‘tib, qonlar to‘kilgan o‘sha dashtda ‘o‘ldirilganlar ruhi’ nadomat yoshlarini to‘kardilar’;

طبیعت زیبا گرد ما همچو قاپ قشنگی می نمود (محمد حجازی)

*Tabiat-e zibā gerd-e mārā hamchu qāb-e qašangi minamud*

‘Ajoyib tabiat bizning atrofimizda go‘zal doiraday ko‘rinardi’;

ضمیر دل خویش منمای زود

که هر گه که خواهی توانی نمود (سعدی)

*Zamir-e del-e xêš manamây zud,*

*Ke hargah xâhi tawâni namud.*

‘O‘z qalbing sirini tez ocha ko‘rma (ko‘rsatmagin)

Xohlagan vaqtingda ocha olasan (ko‘rsata olasan)’.

M.N. Neghat Saidiyning yozishicha, mazkur fe‘llar klassik she‘riyatda ko‘rsatilgan ma‘nolarda ishlatilib, hozirgi dariy tilida, asosan, o‘timsiz fe‘l sifatida qo‘llaniladi. Biroq Afg‘onistonning ba‘zi bir rayonlarida (Badaxshon, Taxoriston) og‘zaki tilda شکستن *šekastan* va ریختن *rêxtan* fe‘llari o‘timli va o‘timsiz fe‘l tarzida ishlatiladi. Hozirgi dariy tilida شکستن *šekastan*, سوختن *sôxtan*, ریختن *rêxtan* fe‘llarining o‘timli shakli شکستاندن *šekastândan*, سوختاندن *sôxtândan*, ریختاندن *rêxtândan*dir [6, b.78].

Qo‘shma fe‘llar ham ikki nisbatli, ya‘ni o‘timli va o‘timsiz ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan: تدارک کردن *tadârok kardan* ‘tadorik ko‘rmoq’, ‘tayyorlanmoq’; ‘tayyorlamoq’, اقرار کردن *eqrâr kardan* ‘iqror bo‘lmoq’, ‘iqror qildirmoq’, وفق دادن *wafq dâdan* ‘muvofiqlashmoq’; ‘muvofiqlashtirmoq’.

Eronlik olimlar tomonidan ham ikki nisbatli fe‘llarga fikr bildirilgan. Jumladan, J. Mashkur bunday fe‘llarni افعال مطاوعت *af‘âl-e motâveat* (‘tobe fe‘llar’), A. Mawlaviy دوگانه افعال *af‘âl-e dogâne* (‘egiz fe‘llar’) yoki افعال دوجهی *af‘âl-e dovajhi* (‘ikki nisbatli fe‘llar’) deb nomlagan. J. Mashkur bunday fe‘llarga nisbatan qo‘llanilgan terminni o‘timli fe‘llar gapdagi boshqa fe‘lning ta‘sirida o‘timsiz ma‘noga ega bo‘ladi, deb izohlaydi [1, b.93-95].

Boshqa nisbat ma‘nolari leksik vositalar orqali ifodalanadi. O‘zbek tilidagi ortirma nisbat ma‘nosi kauzativ fe‘llar orqali (masalan, گذشتن *gozaštan* ‘o‘tmoq’ – گزاردان *gozarândan* ‘o‘tkazmoq’, خوردن *xordan* ‘yemoq’ – خوراندن *xorândan* ‘yedirmoq’), birgalik nisbati ham olmoshi از هم پاشیدن *az ham pāšidan* ‘yoyilib (sochilib) ketmoq’), o‘zlik nisbati خود *xod* o‘zlik olmoshi خودرا انداختن *xodrâ andâxtan* (‘tashlanmoq’) yordamida ifodalanadi.

Kauzativ fe‘llar fe‘lning hozirgi zamon (dariy tilida, shuningdek, -t ga tugallangan o‘tgan zamon) fe‘l negiziga ان *-ân* infiksini va دن *-dan*, یدن *-idan* suffikslarini qo‘shish bilan yasaladi. Mazkur shakl ham o‘timli, ham o‘timsiz fe‘llardan yasalishi mumkin. Bunda o‘timsiz fe‘llar o‘timliga aylanadi: گذشتن *gozaštan* ‘o‘tmoq’ – گزاردان *gozarândan* ‘o‘tkazmoq’, گشتن *gaštan* ‘aylanmoq’ – گشتاندن *gaštândan* yoki گرداندن *gardândan* ‘aylantirmoq’ kabi. O‘timli fe‘llardan yasalganda, ish-harakatni subyektga bajartirish, bajarishga majbur qilish kabi ma‘nolar

ifodalanadi: پوشیدن *pušidan* (*pôšidan*) ‘kiymoq’ – پوشاندن *pušāndan* (*pôšāndan*) ‘kiygizmoq’, فهمیدن *fahmidan* ‘tushunmoq’ – فهماندن *fahmāndan* ‘tushuntirmoq’, ‘uqtirmoq’ kabi. Bu forma qo‘llanganda, harakat bajaruvchisi shu forma orqali ifodalangan shaxsning o‘zi bo‘ladi.

N.A. Muxamedovanning fikricha, fors tilida o‘zlik nisbati mavjud. Harakatning subyektning o‘ziga obyekt sifatida qaratilganini yoki subyektning o‘zi doirasida yuzaga kelishini (bajarilishini) bildiradigan nisbat ma‘nosi fors tilida را *-rā* ort ko‘makchisi bilan kelgan خود *xod* o‘zlik olmoshi (ba‘zan enklitik olmoshlar bilan ishlatiladi) + o‘timli fe‘l konstruksiyasi orqali beriladi:

نگاه داشتن *negāh dāštan* ‘saqlamoq’, ‘ushlab turmoq’ – خود را نگاه داشتن *xodrā negāh dāštan* ‘o‘zini ushlab turmoq’, ‘saqlanmoq’;

رساندن *rasāndan* ‘yetkazmoq’ – خود را رساندن *xodrā rasāndan* ‘yetib olmoq’;

آماده کردن *āmāde kardan* ‘tayyorlamoq’ – خود را آماده کردن *xodrā āmāde kardan* ‘tayyorlanmoq’;

عادت دادن *ādat dādan* ‘odatlantirmoq’ – خود را عادت دادن *xodrā ādat dādan* ‘odatlanmoq’;

انداختن *andāxtan* ‘tashlamoq’ – خود را انداختن *xodrā andāxtan* ‘tashlanmoq’ va sh.k.

Masalan:

آقای صداقت پیشه با عجله خودش را به سالن پذیرایی رساند (خسرو شاهانی)

*Āyā-ye Sadāqatpiše bā ajalle xodašrā be solon-e pazirāyi rasānd*

‘Janob Sadoqatpisha shoshilinch qabul zaliga etib keldi’;

این واحد عظیم نیز اکنون برای آغاز بهره برداری خود را آماده می کند (اطلاعات)

*In vāhed-e azim niz aknun barāye āyāz-e bahrebardāri xodrā āmāde mikonad* ‘Bu katta

obyekt ham hozirda ishga tushirilish uchun tayyorlanmoqda’;

مهری خانم همواره خود را آزار داده است (سعید نفیسی)

*Mehri xānom hamvāre xodrā āzār dāde ast*

‘Mehri xonim doim azoblanardi’.

O‘zlik nisbati ishlatilgan frazeologik birliklar ham mavjud:

خود را به کوچه علی زدن *xodrā be kuče-ye Ali zadan* ‘ayyorlik (mug‘ombirlik) qilmoq’,

خود را به موش مردگی زدن *xodrā be muš-e mordegi zadan* ‘o‘zini kasalga solmoq’, ‘o‘zini baxtsiz ko‘rsatmoq’

خود را به زمین و آسمان زدن *xodrā be zamin va āsemān zadan* ‘hamma imkoniyatlardan foydalanmoq’;

خود را باختن *xodrā bāxtan* ‘o‘zini yo‘qotmoq’

خود را به آب و آتش زدن *xodrā be āb-o ātaš zadan* ‘o‘zini o‘tga-cho‘qqa urmoq’ [2, b.67-68] va h.k.

Fikrimizcha, olim tomonidan bunday yondashuv keltirilgan misollarning ruscha tarjimasidan kelib chiqadi (خود را آماده کردن *āmadē kardan* ‘готовить’ – آماده کردن *xodrā āmadē kardan* – ‘готовиться’, عادت دادن *ādat dādan* ‘приучить’ – خود را عادت دادن *xodrā ādat dādan* ‘приучить себя’, انداختن *andāxtan* ‘бросать’ – خود را انداختن *xodrā andāxtan* ‘бросаться’ kabi). Rus tilida o‘zlik nisbati (возвратно-средний залог) o‘timli fe’lga -ся yuklamasini qo‘shish orqali yasaladi va obyektga yo‘naltirilgan ish-harakatning subyektga, ya’ni ish-harakat bajaruvchisiga qaytishini ifodalaydi. Bizningcha, خود *xod* o‘zlik olmoshi bilan yasalgan bunday konstruksiyalarni o‘zlik nisbati ma’nosini ifodalash uchun tilning ichki imkoniyati deb qaramoq kerak.

### XULOSA

Eron va afg‘on olimlarining asarlarida nisbat fe’lning asosiy grammatik kategoriyasi sifatida ko‘rsatilmasa-da, aniq va majhul fe’llar ajratiladi. Hozirgi fors va dariy tillarida majhul nisbatning yasalihi klassik tilga nisbatan to‘liq bir me’yorga keltirilgan. Ikki nisbatli fe’llar o‘zlarining leksik ma’nolariga ko‘ra ham o‘timli, ham o‘timsiz bo‘ladi, biroq bunday fe’llarning miqdori ko‘p emas. Qo‘shma fe’llar ham ikki nisbatli, ya’ni o‘timli va o‘timsiz ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Boshqa nisbat ma’nolari leksik vositalar orqali ifodalanadi. Fors va dariy tillarida, shuningdek, o‘zlik nisbati mavjud emas. Mazkur nisbat ma’nosining خود *xod* o‘zlik olmoshi ishtirokidagi tuzilmalar orqali ifodalanishi tilning ichki imkoniyati tufayli yuzaga kelgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimova X.Z. Fors va dariy tillari nazariyasi. – T.: TDSHU, 2023.
2. Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. – Т.: ТашГИВ, 1994.
3. Основы иранского языкознания. Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. – М.: Наука, 1982.
4. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. – М.: Наука, 1981.
5. ALIMOVA, K. (2020). Dari Word-forming Transposition Phenomenon. *International Journal of Pharmaceutical Research* (09752366).
6. Alimova, X. Z. (2021). DARIY TILIDA FE’L NEGIZLARINING OTLASHUVI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 35-47.
7. پرویز نائل خانلری. دستور زبان فارسی. – تهران، 1351.
8. محمد نسیم نگهت سعیدی. دستور معاصر زبان دری. – کابل، 1348.
9. مشکور جواد. دستورنامه. – تهران، 1346.
10. مولوی عباسعلی. دستور زبان فارسی. – تهران، 1359.
11. همایونفرخ عبدالرحیم. دستور جامع زبان فارسی. هفت جلد در یک مجلد، چاپ 2. – تهران، 1339.